



# YURISPRUDENSIYA

**HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI**

**2023-yil 5-son**

VOLUME 3 / ISSUE 5 / 2023  
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5.



**ISSN: 2181-1938**

**DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence**

# MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 YO’LDOSHEV AZIZJON ERGASH O’G’LI**  
Jamoatchilik fikrini o’rganishni huquqiy tartibga solish masalalari
- 16 ALLAKULIYEV MIRJALOL DAVRONBEKOVICH**  
Norma ijodkorligi faoliyati: son va sifat tahlili
- 22 TURSUNOVA SABINA RAVSHANOVNA**  
Turizm xavfsizligini ta’minlovchi huquqiy hujjatlar tahlili va tasnifi

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 33 GULOMOV AKMALJON SHUKURILLAYEVICH**  
Fuqarolik huquqida suksessiya instituti va uning qo’llanishi
- 42 IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA,  
RAZAKOVA FARANGIZ KARIM QIZI**  
Xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik tamoyilini qo’llashning huquqiy masalalari
- 54 ISAKULOV ABDUAZIZ**  
Not a party, not a problem: the dilemma of extending arbitration clause to non-signatory states
- 60 SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**  
Distinctive features of corporate dispute resolution

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIK LARNING  
OLDINI OLISH.  
KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 72 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**  
Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari
- 82 **TAIROVA GULMIRA MURODJONOVNA**  
Jinoyatchilikka qarshi kurashishning Buyuk Britaniya modeliga xos xususiyatlar
- 89 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**  
Misr Arab Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi jazoni yengillashtirish instituti
- 99 **СҮЮНОВА ДИЛЬБАР ЖОЛДАСБАЕВНА**  
Соблюдение сроков содержания под стражей при окончании предварительного следствия и на стадии судебного разбирательства
- 107 **NURMATOV BOBIR ABDUSATTOROVICH**  
Inssenirovka qilish orqali sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh qilishning ayrim usullari tavsifi
- 114 **YERMEKBAYEV BAUIRJAN AMANTAYEVICH**  
Tintuv tushunchasi va tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari
- 126 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**  
COVID-19 pandemiysi davrida tibbiyot sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy jihatlari

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5./IZZN1343  
UDC: 342:340.134(045)(575.1)

## NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATI: SON VA SIFAT TAHLILI

Allakuliev Mirjalol Davronbekovich,  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
Qonunchilik departamenti rahbari  
ORCID: 0009-0009-3362-2643  
e-mail: m.allakuliev@adliya.uz

**Annotatsiya.** Vakolatli davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan har bir qonunchilik hujjati loyihasi u qabul qilingach, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonunchilik hujjatlarining loyihalari Hukumatga, Prezident Administratsiyasiga faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi Adliya vazirligining xulosasi mavjud bo'lgandagina kiritiladi. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, ularni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish, loyihalarning jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilganlik holati, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi muhokama qilinadi. Hisob-kitoblarga asoslanmagan, tegishli sohalarga ta'siri baholanmagan hamda ijro xatarlari tahlil qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining qabul qilinishi nafaqat davlat byudjeti, balki aholi va tadbirkorlik subyektlarining asossiz va ortiqcha moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, ushbu maqolada hozirgi kunda amaliyotda uchrayotgan norma ijodkorligi jarayoni bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari atroflicha tahlil qilinib, ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** norma ijodkorligi, huquqiy ekspertiza, jamoatchilik muhokamasi, tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertiza, checklist.

### НОРМОТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ: КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ И КАЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ

Аллақулиев Миржалол Давронбекович,  
начальник Департамента законодательства  
Министерства юстиции Республики Узбекистан

**Аннотация.** Каждый проект законодательного документа, разработанный компетентными государственными органами, служит для правового регулирования определённой сферы общественных отношений после его принятия. При этом проекты законодательных документов будут вноситься в Правительство и Администрацию Президента только при наличии заключения Минюста о целесообразности их принятия по итогам юридической экспертизы. В статье рассматривается правовая и антикоррупционная экспертиза проектов нормативно-правовых актов, оценка их регуляторного воздействия, статус общественного обсуждения проектов, порядок государственной регистрации ведомственных нормативно-правовых актов. Принятие проектов нормативно-правовых документов, не основанных на оценке их влияния на соответствующие отрасли и на анализе рисков их исполнения, наносит ущерб не только государственному бюджету, но и несёт неоправданные и чрезмерные финансовые потери для населения и субъектов

предпринимательства. Кроме того, в данной статье описан процесс создания норм, который существует в настоящее время на практике. Проблемы и пути их решения были тщательно проанализированы, а также даны рекомендации по устранению этих проблем.

**Ключевые слова:** нормотворчество, правовая экспертиза, общественное обсуждение, оценка регуляторного воздействия, антикоррупционная экспертиза, чек-лист.

## RULE-MAKING ACTIVITY: QUANTITATIVE AND QUALITATIVE ANALYSIS

**Allakuliyev Mirjalol Davronbekovich,**

Head of the Department of Legislation  
of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** Each draft act of legislation developed by the competent state bodies serves to legally regulate a certain area of social relations after its adoption. At the same time, drafts of legislative documents will be submitted to the Government and the Presidential Administration only if there is a conclusion of the Ministry of Justice on the expediency of their adoption at the end of the legal examination. The article discusses the legal and anti-corruption expertise of draft normative legal acts, their regulatory impact assessment, the status of public discussion of draft legislations, and the procedure for state registration of departmental normative legal acts. Adoption of projects of normative legal documents, which are not based on calculations, the impact on the relevant sectors has not been assessed, and the risks of execution have not been analyzed, not only cause the state budget but also unjustified and excessive financial losses of the population and business entities. In addition, this article describes the process of creating norms that are currently in practice. Furthermore, problems and their solutions were thoroughly analyzed, and recommendations were made to eliminate these problems.

**Keywords:** rule-making, legal expertise, public discussion, regulatory impact assessment, anti-corruption expertise, checklist.

### Kirish

Huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish Adliya vazirligining (keyingi o'rnlarda – vazirlik) asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mazkur tashkilot norma ijodkorligi jarayonlarida qonunchilik hujjatlari loyihibarini huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan o'tkazadi, vazirlik va idoralarning tartibga solish ta'sirini baholash faoliyatini muvofiqlashtiradi, qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan huquqiy monitoringni amalga oshiradi.

O'tgan davr mobaynida vazirlik tomonidan unga yuklatilgan vazifa va funksiyalar doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) norma-

tiv-huquqiy hujjatlar e'lon qilinadigan rasmiy manba maqomi berildi, 35 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlarining elektron banki (fondi) shakllantirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi ([www.project.gov.uz](http://www.project.gov.uz)) yaratilib, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va Hukumatga kiritish faqat elektron shaklda amalga oshirilishi belgilandi. Shu bilan birga, mamlakatimiz tarixida ilk bor idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va qabul qilish jarayoni to'liq raqamlashtirildi [1].

Norma ijodkorligi jarayonlari shaffofligini ta'minlash, qonunchilik hujjatlari ishlab chiqishda keng xalq ommasini jalb etish maqsadida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali ([www.regulation.gov.uz](http://www.regulation.gov.uz)) ishga tushirilib, shu kunga qadar 16 mingdan

ortiq loyiha jamoatchilik muhokamasidan o't-kazildi [2].

"Tartibga solish gilyotinasi" usulini qo'llash orqali eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan, huquqni qo'llash amaliyotida byurokratik to'siq va g'ovlar hamda kolliyalarni keltirib chiqarayotgan 4 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlari bekor qilinib, *qonunchilik bazasining 12 foizga qisqarishiga erishildi*.

### Material va metodlar

Maqolada analiz va sintez metodlaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llangan.

### Tadqiqot natijalari

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, ayrim olimlar normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va tartibga solishning miqdoriy yondashuvlariga alohida e'tibor qaratadi. Bunda normalar soni, sahifalar, iqtisodiy ta'sir tahlillari va boshqa ko'rsatkichlarni muhokama qilish e'tibor doirasida bo'ladi [3]. Boshqa bir qator olimlar normativ-huquqiy hujjatlar va tartibga soluvchi dasturlarni baholashda miqdoriy va sifat yondashuvlarini o'rganadi [4, 5]. Shuningdek, ba'zi olimlar tartibga solish ta'sirini tahlil qilishni baholashning miqdoriy va sifat usullarini muhokama qiladi [6], Buyuk Britaniya hukumatida tartibga solish tahlili va nazorati uchun miqdoriy va sifat vositalarini o'rganadi [7, 8], OECD va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llanadigan tartibga solish sifatining turli miqdoriy ko'rsatkichlarni solishtiradi [9].

Ba'zi MDH olimlari norma ijodkorligi faoliyati samaradorligini baholash kontekstida miqdoriy va sifat tahlilini muhokama qiladi [10], boshqalar normativ-huquqiy hujjatlarning sifati va samaradorligini tahlil qilishning miqdoriy va sifat usullari [11] hamda qonun hujjatlarini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish tamoyillarini ko'rib chiqadi [12]. Yana bir qator olimlar esa normativ-huquqiy hujjatlar samaradorligini ba-

holashning miqdoriy va sifat mezonlari, shuningdek, huquqiy tahlilning sifat va miqdoriy yondashuvlarini tahlil qiladi [13], huquqiy me'yorlarni o'rganishda tizimli tahlil, shu jumladan, miqdoriy usullarni qo'llashni o'rganadi [14].

Ta'kidlash joizki, 1991–2023-yillarda davomida 29 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lsa, ularning 12 374 tasi yoki 43 foizi oxirgi 6 yilda qabul qilingan.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'l-jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda Davlat dasturlarida belgilangan islohotlar va vazifalarning huquqiy asoslarini yaratish, shuningdek, ishlarni tizimli ravishda tashkillashtirish maqsadida har bir yo'nalish bo'yicha tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilindi [4].

Tabiiyki, alohida olingan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, o'z navbatida, qonunchilik hujjatlari sonining oshishiga sabab bo'ladi. Hujjatlar soni ko'paygan bo'lsa-da, ammo loyihalarning barchasi ham yetarli sifat darajasida emas.

Ma'lumki, qonunchilik hujjatlarining loyihalari Hukumatga, Prezident Administratsiyasiga faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi Adliya vazirligining xulosa-si mavjud bo'lgandagina kiritiladi.

Birgina 2023-yilning 9 oyi davomida Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun jami 1 575 ta qonunchilik hujjati loyihasi kiritilgan. Ammo ularning 86 foizi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan bo'lsa, 14 foizi loyihalarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularni takomiliga yetkazish uchun ishlab chiquvchilarga *qaytarilgan*.

Bu shuni anglatadiki, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish tartibi va loyihalarning sifat darajasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Vazirlik tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari tahlil qilinganda, quyidagi tizimli muammolar mavjudligi aniqlandi:

*Birinchidan*, vazirlikka kiritilgan loyihalarning salkam 26 foizga yaqini jamoatchilik muhokamasi portaliga joylashtirilmagan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga asosan, qonunchilik hujjatlari loyihalari jamoatchilik fikr-mulohazalari va takliflarini olish maqsadida o'n besh kundan kam bo'magan muddatga jamoatchilik muhokamasiiga qo'yilishi lozim [5].

*Ikkinchidan*, manfaatdor vazirlik va idoralarga kelishish uchun kiritilgan loyihalarning 86 foizi kelishish talablariga rioya qilmasdan, belgilangan muddatlarga amal qilinmagan. Ayrim loyihalalar ishlab chiquvchilar tomonidan kelishilishi majburiy bo'lgan manfaatdor davlat organlariga kiritilmagan.

*Uchinchidan*, loyihalarni tayyorlashda ko'plab kamchilik va xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Xususan, vazirlik tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan 1 353 ta qonunchilik hujjatlari loyihalari jami 8 749 ta (har bir loyiha o'rtacha 6 tadan) e'tiroz bildirilgan. Ularning mutlaq katta qismi – 70 foizi amaldagi qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasiga nomuvofiq, 13 foizi qonunchilik talablariga zid, qolgan qismi esa aniqlangan korrupsiyaviy omillar hamda boshqa taklif va e'tirozlar bilan bog'liq.

Shuningdek, yuqoridagi hujjatlarning uchdan bir qismi puxta ishlab chiqilmagani bois konseptual e'tirozlar bilan qaytarilgan.

*To'rtinchidan*, tegishli davrda vazirlikka davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun kelib tushgan idoraviy-normativ huquqiy hujjatlarining 28 foizi turli asoslarga ko'ra davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Shu jumladan,

96 ta hujjat loyihasi matnida aniqlangan kamchiliklar, 5 tasi ishlab chiquvchilarining xatiga asosan qaytarib olinganligi va 2 tasi davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan hujjat deb topilganligi sababli loyiha mualliflariga qaytarilgan.

*Beshinchidan*, qonunchilik hujjati loyihalarning tartibga solish ta'sirini baholash (keyingi o'rnlarda – TSTB) tartibiga yetarli darajada rioya etilmagan. Shu jumladan, huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilgan loyihalarning 412 tasi tartibga solish ta'sirini baholash doirasiga tushsa-da, ularning 197 tasi yoki 48 foizi vazirlik va idoralar tomonidan baholashdan o'tkazilmagan, TSTB bo'yicha hisobot to'ldirilmagan hamda xulosa beruvchi organlarning xulosalari olinmagan.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagи PQ-5025-son qaroriga asosan, loyiha va TSTB bo'yicha hisobot xulosa beruvchi organlarning TSTB natijalari bo'yicha xulosalari mavjud bo'lgandagina Adliya vazirligiga kiritiladi.

Shuningdek, TSTB holati tahlil qilinganda, aksariyat holatlarda davlat organlari tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda baholash o'tkazilmayotganligi, o'tkazilgan baholashlar esa faqat rasmiyatçilik uchun amalga oshirilayotganligi aniqlandi.

Hisob-kitoblarga asoslanmagan, tegishli sohalarga ta'siri baholanmagan hamda ijro xatarlari tahlil qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarning qabul qilinishi nafaqat davlat byudjeti, balki aholi va tadbirkorlik subyektlarining asossiz va ortiqcha moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'lmoqda.

*Oltinchidan*, ishlab chiquvchilar tomonidan loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibiga amal qilinmagan. Shu jumladan, vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilgan 228 ta loyiha da 350 ta korrupsiyaviy omillar aniqlangan.

Bunda aniqlangan korrupsiyaviy omillarning eng katta qismi diskretsion vakolatlarning kengligi, normativ-huquqiy hujjat-

lar o’rtasida ziddiyatlarning mavjudligi hamda noaniq va asossiz hovolalar keltirilganligi bilan bog’liq korrupsiyaviy omillar sanaladi.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Shu o’rinda aytish lozimki, 71 ta loyiha-ga korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha *checlist* (keyingi o'rinnlarda – checklist) ilova qilinmagan (checklist – normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha namunaviy shakldagi savolnoma).

Vaholanki, Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3287, 24.02.2021-yil) ko'ra, checklist ishlab chiquvchi tomonidan loyihaning jamoatchilik muhokamasi, idoralararo kelishuv, huquqiy ekspertizadan o'tkazish bosqichlarida loyiha ilova qilinishi lozim [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi PQ-5263-son qarorida esa checklist to'ldirilmagan qonunchilik hujjatlari loyihamar adliya organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasligi va ishlab chiquvchiga qaytarilishi belgilangan [7].

Yuqoridagi o'rinnlarda keltirilgan muammolarning aksariyati qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilmasligi bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, loyihami ishlab chiqishda yuridik texnika qoidalariga amal qilinmasligi, korrupsiyaga qarshi ekspertriza yoki TSTBdan o'tkazilmasligi loyiha mualliflarining norma ijodkorligi jarayonlariga mas'uliyat bilan yondashmayotganligidan darak beradi.

Ammo, shu bilan birgalikda, bu bora-da obyektiv muammolar ham mavjud. Shu jumladan, yuqorida aytiganidek, loyihamarining 86 foizida ularni manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish tartibi buzilgan. Bunga, o'z navbatida, *idoralararo kelishish muddatlari qisqaligi* ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Masalan, kelishish muddati qonun loyihamar uchun 7 ish kuni, Prezident va Hukumat hujjatlari uchun 3 ish kuni etib belgilangan.

Bunda muddatlarning qisqaligi loyihalarning sifatli va har tomonlama ko'rib chiqilishiga imkon bermaydi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda qabul qilinayotgan hujjatlar sonining keskin oshishi (jami qonunchilik hujjatlarining 43 foizi so'nggi 6 yilda qabul qilingan) loyihalarni ko'rib chiqishga mas'ul xodimlarning ish yuklamasi ortishiga olib kelmoqda. Shu jumladan, 2012–2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 788 ta, 2017–2021-yillar davomida esa 2 771 ta (350 foiz yoki 3,5 barobarga ko'paygan) qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Bunday yuqori *qonunchilik inflatsiyasi* vazirlik va idoralarning institutsional salohiyatini pasaytirib, hujjatlarni amaliyotda to'g'ri qo'l-lash va islohotlarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Bundan tashqari, mazkur omillar keli-shish muddatlariga rioya etilishini qiyinlash-tiradi.

Shu boisdan taklif sifatida aytish mumkin-ki, *idoralararo kelishish muddatlarini qayta ko'rib chiqish lozim*.

Yana bir muammo shuki, vazirlik va idoralarda qonunchilik hujjatlari loyihalarning sifatsiz ishlab chiqilishi va ta'siri bahanmasligiga resurslarning yetishmasligi, jumladan, *maxsus tarkibiy bo'linmalar ushbu faoliyat bilan shug'ullanmasligi* hamda *mutaxassislarning malakasizligi* ham ta'sir ko'rsatmoqda.

### Xulosalar

Yuqorida aytiganidek, ko'rsatilgan davr davomida vazirlik tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihamariga jami 10 054 ta e'tiroz bildirilgan. Bunday e'tirozlarning asosiy qismini loyihamar matnida amaldagi qonunchilikka zid normalar va yuridik texnika qoidalariга rioya etilmaganligi tashkil qilgan. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, loyiha mualliflarida malaka yetishmasligi, loyihami tayyorlashdagi e'tiborsizliklar va h. k.

Bundan tashqari, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar muddat-

larining qisqaligi ham ishlab chiqiladigan loyihalarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar muddati, asosan, 1-2 oyni tashkil etmoqda. Sifatlari hujjat ishlab chiqishga esa amaliyotda kamida 3-4 oy vaqt talab qilinadi.

Shu boisdan qonunchilik hujjatlari loyihalarini *ishlab chiqish muddatini eng kamida 3 oy qilib belgilash* maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, norma ijodkorligi faoliyati davlatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan asosiy vositasi sanaladi. Norma ijodkorligida har qanday xato va kamchiliklar kutilmagan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois mazkur faoliyatdagi mavjud tizimli kamchiliklarni bartaraf etish davlat oldida turgan har qachongidan ham muhim masala hisoblanadi.

## REFERENCES

1. A unified electronic system for the development and agreement of drafts of regulatory legal documents – project.gov.uz. Available at: <https://project.gov.uz>
2. The portal for the discussion of projects of regulatory and legal documents – regulation.gov.uz. Available at: <https://regulation.gov.uz>
3. Rayanov F.M. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Jurist Publ., 2002.
4. Coglianese C. Measuring regulatory performance: Evaluating the impact of regulation and regulatory policy. Expert Paper No. 1. Paris, OECD, 2012. Available at: [https://www.oecd.org/gov/regulatory-policy/1\\_coglianese%20web.pdf](https://www.oecd.org/gov/regulatory-policy/1_coglianese%20web.pdf)
5. Livermore M.A., Revesz, R.L. Rethinking health-based environmental standards. *New York University Law Review*, 2013, no. 89 (4), pp. 1184–1262.
6. Ellig J. Evaluating the quality and use of regulatory impact analysis. *Regulation & Governance*, 2016, no. 10 (1), pp. 1–7.
7. Lodge M., Wegrich K. Managing regulation: Regulatory analysis, politics and policy. London, Palgrave Macmillan, 2012.
8. Radaelli C.M., De Francesco F. Regulatory quality in Europe: Concepts, measures, and policy processes. Manchester, Manchester University Press, 2010.
9. Kartashov V.N. Teoriya pravovoy sistemy obshchestva [Theory of the legal system of society]. Yaroslavl, Yaroslavl State University, 2005.
10. Bakhrakh D.N. Administrativnoye pravo Rossii [Administrative law of Russia]. Moscow, Norma Publ., 2017.
11. Kuznetsov S.A. Normotvorchestvo: teoriya i zakonodatel'naya praktika [Rulemaking: theory and legislative practice]. Moscow, Formula prava Publ., 2008.
12. Malko A.V., Subochev V.V. Zakonnnyye interesy kak pravovaya kategoriya [Legitimate interests as a legal category]. Moscow, Norma Publ., 2010.
13. Oreshin Ye.P. Sistemnyy podkhod k poznaniyu prava [Systematic approach to the knowledge of law]. Moscow, Norma Publ., 2018.
14. Bendor J. Quantifying regulation. *Annual Review of Political Science*, 2015, no. 18, pp. 261–276. DOI: 10.1146/annurev-polisci-060113-120957
15. Radko T.N. Theory of state and law. Moscow, 2016.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 5-SON

VOLUME 3 / ISSUE 5 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.5.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 27.10.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 15,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 89.

TDYU tipografiyasida chop etildi.